



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

BADIIY OBRAZ TALQINIDA PERSONAJ, QAHRAMON VA XARAKTER MASALASI

Toshbekova Ziyoda Solijon qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada adabiyotshunoslikning muhim kategoriyalari hisoblangan badiiy obraz, personaj, qahramon va xarakter tushunchalarining nazariy asoslari tahlil qilinadi. Obrazning estetik mohiyati, personaj va qahramonning badiiy asardagi o'рни hamda xarakter tushunchasining badiiy talqindagi ahamiyati ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, Erkin Samandarning "G'ayb qushlari" to'plamidagi hikoya va qissalar hamda Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani misolida personaj, qahramon va xarakter masalalari badiiy-psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Ayniqsa, Enaxon aya, Shayx Najmiddin Kubro va Otabek obrazlari orqali inson ruhiyati, vatanparvarlik, ma'naviy poklik va insoniy munosabatlarning badiiy ifodasi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Badiiy obraz, personaj, qahramon, xarakter, ruhiyat, badiiy tafakkur, psixologik tasvir, Erkin Samandar, Abdulla Qodiriy, "G'ayb qushlari", "O'tkan kunlar", adabiyotshunoslik.

ПРОБЛЕМА ПЕРСОНАЖА, ГЕРОЯ И ХАРАКТЕРА В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА

Тошбекова Зиёда Солижон кизи

Джизакский государственный педагогический университет, докторантка

Аннотация

В данной статье анализируются теоретические основы понятий художественного образа, персонажа, героя и характера, являющихся важными категориями литературоведения. На основе научных источников раскрываются эстетическая сущность художественного образа, роль персонажа и героя в художественном произведении, а также значение понятия характера в художественной интерпретации. Кроме того, на примере рассказов и повестей из сборника Эркина Самандара «Птицы незримого мира» («Файб қушлари») и романа Абдуллы Кадыри «Минувшие дни» («O'tkan kunlar») художественно-психологически анализируются вопросы персонажа, героя и характера. В частности, через образы Энахон ая, шейха Наджмиддина Кубро и Атабека раскрывается художественное выражение человеческой психологии, патриотизма, духовной чистоты и человеческих взаимоотношений.

Ключевые слова: Художественный образ, персонаж, герой, характер, психология, художественное мышление, психологическое изображение, Эркин Самандар, Абдулла Кадыри, «Птицы незримого мира», «Минувшие дни», литературоведение.

THE ISSUE OF CHARACTER, HERO, AND PERSONALITY IN THE INTERPRETATION OF THE LITERARY IMAGE

Toshbekova Ziyoda Solijon qizi

Jizzakh State Pedagogical University, Doctoral student

Abstract

This article analyzes the theoretical foundations of the concepts of literary image, персонаж (character), hero, and personality, which are considered important categories in literary studies. Based on scholarly sources, the aesthetic essence of the literary image, the role of character and hero in a literary work, and the significance of personality in artistic interpretation are elucidated. Furthermore, the issues of character, hero, and personality are examined from an artistic and psychological perspective through the stories and novellas in Erkin Samandar's collection "G'ayb qushlari" and Abdulla Qodiriy's novel "O'tkan kunlar." In particular, through the images of Enaxon aya, Shaykh Najmiddin Kubro, and Otabek, the artistic expression of human psychology, patriotism, spiritual purity, and human relationships is revealed.

Keywords: Literary image, character, hero, personality, psychology, artistic thinking, psychological depiction, Erkin Samandar, Abdulla Qodiriy, "G'ayb qushlari," "O'tkan kunlar," literary studies.

Ijodkor inson qalbi, uning orzu-intilishlari, iztiroblari va hayot haqidagi qarashlarini tafakkur va

tasavvur orqali boyitib, badiiyat dunyosiga olib kirar ekan, unga badiiy obraz doimo ko'mak beradi. Adabiyotda badiiy obraz — yozuvchi yoki shoirning hayot haqidagi qarashlari, inson ruhiyati va voqelikni estetik idrok etishi asosida yaratilgan badiiy timsoldir. U oddiy nusxa yoki voqeaning quruq bayoni emas, balki hayot haqiqatining san'atkor tafakkuri orqali qayta ishlangan hamda ma'lum g'oya va hissiy mazmun bilan boyitilgan ifodasidir. Badiiy obraz orqali muallif inson xarakteri, ichki kechinmalari, davr muammolari va jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy qarashlarni ochib beradi. Shu jihatdan obraz adabiy asarning markaziy estetik unsuri bo'lib, kitobxon tafakkuri va ruhiyatiga ta'sir etuvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikning muhim tarkibiy qismini tashkil etuvchi "obraz" tushunchasi ba'zan "personaj" yoki "qahramon" kabi terminlar bilan bir xil ma'noda qo'llanilishi mumkin. Ammo ularni farqlash lozim. Badiiy asarda tasvirlangan, voqealar rivojida ishtirok etadigan va asarda muayyan o'ringa ega bo'lgan shaxs yoki timsol personaj deb ataladi. Adabiyotshunoslik manbalariga nazar tashlar ekanmiz, unga berilgan ta'riflar bir-birini aynan takrorlamasligiga guvoh bo'lamiz. Xususan, adabiyotshunos olim Hotam Umurov unga: "Personaj (lotincha *persona* — shaxs so'zidan) atamasi badiiy asarda ishtirok etuvchi barcha shaxslarga nisbatan qo'llaniladi" [1; 47-bet], deya ta'rif bersa, atoqli adabiyotshunos olim, akademik Izzat Sulton o'zining Adabiyot nazariyasi kitobida uni shunday izohlaydi: "Badiiy asarda ozmi-ko'pmi tasvir etilgan har bir shaxs personaj deb ataladi. 'Personaj' (fransuzcha) — 'kishi, shaxs' demakdir" [2; 103-bet].

Yuqoridagilar asosida umumlashtirib aytganda, personaj — bu badiiy asardagi qatnashuvchi shaxs, ya'ni voqealarda ishtirok etadigan qahramondir. Asarda kimdir gapirsa, harakat qilsa, voqealarga ta'sir ko'rsatsa yoki muallif tomonidan tasvirlansa, u personaj hisoblanadi. Personaj orqali yozuvchi inson xarakteri, ruhiyati va hayotga munosabatini ochib beradi. Oddiy qilib aytganda, personaj — asar ichida yashaydigan va voqealarni harakatga keltiradigan obrazdir. "Demakki, asarda qimirlagan inson obrazi bo'lsa — katta yoki kichikligi, syujetdagi ishtiroki, asar strukturasida tutgan o'rnidan qat'i nazar, ularning barchasini personaj deb atash mumkin" [3; 67-bet].

Istiqlool davri ijodkorlaridan biri bo'lgan Erkin Samandarning G'ayb qushlari to'plamidan o'rin olgan qissa va hikoyalarda Pahlavon Mahmud, Najmiddin Kubro, Xizr sifat mehmon, mo'g'ul bosqinchilari, Qiyot ahli singari turli personajlar qatnashadi. Har bir personaj asardagi tarixiy muhit va ma'naviy ruhni ochishda muhim badiiy vazifa bajaradi.

Masalan, Erkin Samandarning Jazo hikoyasida shunday deyiladi:

"Tongsiz tunlarda-yu tund kunlarda aya bu haqida ko'p o'ylagan. U biladi, tashlangan yaxshi-yomon qadamlarning hisob-kitobi bo'ladi. Odamlarga yomonlik qilgan, azob bergan, nohaq birovlarini xo'rlagan kimsa oxir-oqibat bir ofatga, masalan, og'ir xastalikka chalinadi. Shuni o'ylab aya o'zining butun umrini, bosgan qadamlarini ko'z oldidan o'tkazadi. Beayb parvardigor, u ham xatolar qilgan, lekin hech kimga yomonlikni ravo ko'rmagan. Hech kimga" [4; 348-bet].

Ushbu parchada Enaxon aya obrazi insoniy vijdon, umr sarhisobi va ma'naviy poklik timsoli sifatida gavdalanadi. Muallif personajning ichki kechinmalarini tasvirlash orqali inson qalbida kechadigan eng nozik ruhiy jarayonlarni ochib beradi. Aya hayot davomida qilingan har bir amalning javobi bo'lishiga ishonadi. Uning nazarida yaxshilik ham, yomonlik ham izziz ketmaydi; odamzod boshqalarga yetkazgan ozori uchun bir kun kelib javob beradi. Shu sababli u o'z umriga, bosgan yo'liga chuqur nazar tashlaydi, hayotini vijdon tarozisida tortadi.

Personajning ruhiy olami ayniqsa samimiyligi bilan ta'sirchan. Aya o'zini mutlaqo begunoh qilib ko'rsatmaydi, u ham inson sifatida xatolar qilganini tan oladi. Biroq uning qalbida bir taskin bor — u hech kimga ataylab yomonlik qilmagan, birovning dilini og'ritishni ravo ko'rmagan. Shu jihat aya xarakterining asosiy ma'naviy mezonini belgilaydi. Demak, muallif nazarida insonning komilligi xatosiz yashashida emas, balki qalb pokligi va odamlarga bo'lgan ezgu munosabatida namoyon bo'ladi.

Badiiy asarning markazida turuvchi, voqealar rivojini harakatga keltiruvchi yetakchi obraz — bu qahramondir. "Badiiy asar mazmunida asosiy o'rin tutuvchi personajlar (epizodik personajlardan farqli o'laroq) qahramon deb ataladi. Otabek, Kumush, Homid, Yusufbek hoji, Hasanali, Azizbek, Usta Olim, Normuhammad va boshqalar O'tkan kunlarning qahramonlaridirlar. 'Qahramon' atamasi tasvir etilgan personajning albatta ijobiy sifatlarga ega ekanini ko'rsatmaydi, balki asarda uning katta o'rin tutishini anglatadi, xolos" [2; 105-bet].

Qahramon asardagi voqealarning markazida turadi va ko'pincha voqealar uning hayoti, harakatlari hamda kechinmalari atrofida rivojlanadi. Asarning asosiy g'oyasi va mazmuni ko'pincha qahramon faoliyati orqali ochiladi. U orqali yozuvchi inson xarakteri, ruhiyati, jamiyatga munosabati va hayot haqidagi qarashlarini bayon qiladi.

Masalan, Erkin Samandarning G'ayb qushlari nomli hikoyasining bosh qahramoni Shayx Najmiddin Kubro bo'lib, voqealar aynan mazkur shaxs atrofida aylanadi:

— Yo'q, men yurtimni, xalqimni tashlab hech qayon ketmasmen. Yaxshi-yomon kunida birga bo'lgan xalqim ila bir tomchi qonim qolguncha birga bo'lurmen! Shu vatanla tug'ilibmiz, shu vatanda o'lurmiz!" [4; 344-bet].

Ushbu parchada qahramon xarakterining eng muhim jihati — uning Vatanga va xalqiga bo'lgan sadoqati namoyon bo'ladi. Qahramon o'zini xalqdan ajralgan holda tasavvur qilmaydi. "Men yurtimni, xalqimni tashlab hech qayon ketmasmen" degan so'zlari uning qat'iy irodali, e'tiqodiga sodiq inson ekanini ko'rsatadi. Bu fikr orqali qahramonning ruhiy olami, ichki qarashlari ochiladi: u uchun shaxsiy manfaatdan ko'ra xalq taqdiri ustun turadi.

Qahramonning "Yaxshi-yomon kunida birga bo'lgan xalqim ila bir tomchi qonim qolguncha birga bo'lurmen" degan fikri uning fidoyi va jasoratli obraz ekanini yanada chuqurlashtiradi. Bu yerda u xalq bilan nafaqat quvonchda, balki og'ir sinovlarda ham birga bo'lishni o'zining insoniy va ma'naviy burchi deb biladi. "Bir tomchi qonim qolguncha" iborasi qahramonning kurashchanligi va matonatini kuchli hissiy bo'yoqlarda ifodalaydi. Shuningdek, "Shu vatanla tug'ilibmiz, shu vatanda o'lurmiz" jumlasida qahramon dunyoqarashining asosiy mezonini ochib beradi. U Vatanni oddiy yashash joyi emas, balki insonning taqdiri, sha'ni va borlig'i bilan bog'liq muqaddas maskan sifatida anglaydi. Shu sababli qahramon uchun Vatanni tark etish o'zligini yo'qotish bilan barobar. Demak, parchada qahramon obrazi vatanparvar, xalqparvar, matonatli va ma'naviy jihatdan sobit inson sifatida gavdalantirilgan. Muallif aynan shu bosh qahramon orqali xalq va Vatan oldidagi sadoqat g'oyasini yuksak badiiy ruhda ifodalagan.

Badiiy obrazni tadqiq va tahlil qilar ekanmiz, uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan xarakter masalasiga ham to'xtalib o'tish joizdir. Xarakter — badiiy asardagi qahramonning o'ziga xos fe'l-atvori, ruhiyati va hayotga munosabatini ifodalovchi xususiyatlar yig'indisidir. U qahramonning xatti-harakati, nutqi va voqealarga munosabati orqali namoyon bo'ladi. Xarakter yordamida yozuvchi inson tabiatining muhim jihatlarini ochib beradi. Shu sababli xarakter badiiy obrazning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. "Agar obrazni yong'oqqa qiyoslasak, xarakter (yunoncha *character* — xususiyat, belgi) shu yong'oqning mag'zidir. Chunki mag'izda yong'oqning mohiyati, tirikligi, zaruriyligi, joni jamuljamdir" [1; 48-bet].

Qisqacha aytganda, "... muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim, xarakterli umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o'zida uyg'un mujassam etgan obraz nazarda tutiladi" [3; 75-bet].

Misol tariqasida Abdulla Qodiriyning O'tkan kunlar romanida Otabek xakteri uning nutqi, muomalasi va ichki kechinmalari orqali bosqichma-bosqich ochib boriladi. Asarning dastlabki sahifalaridayoq muallif Otabekni "og'ir tabiatlik", "ko'rkam", "qandog'dir bir xayol ichida o'lturg'uchi" yigit sifatida tasvirlaydi. Bu iboralar qahramonning oddiy savdogar yigit emas, balki chuqur mushohadali va ichki dunyosi boy inson ekanini anglatadi. Ayniqsa, uning Marg'ilonda musofir bo'lib yolg'iz qolishi ruhiy holatini yanada kuchaytiradi. Shu ruhiy holat quyidagi dialogda yaqqolroq ochiladi:

"Tinchsizlamadingizlar, bil'aks quvontirdingizlar,— dedi, — shahringizga birinchi martaba kelishim bo'lg'ani uchun tanishsizlik, yolg'izlik meni juda zeriktirgan edi." [5; 7-bet].

Mazkur jumlada Otabek xarakterining bir necha muhim qirralari mujassam. Avvalo, u mehmonlarga nisbatan nihoyatda muloyim va samimiy muomala qiladi. "Tinchsizlamadingizlar, bil'aks quvontirdingizlar" degan ibora sharqona odob va insoniy nazokat ifodasidir. Otabek mehmonni ortiqcha yuk yoki bezovtalik deb emas, aksincha, qalbiga taskin beruvchi inson sifatida qabul qiladi. Bu esa uning odamlarni qadrlaydigan, kibru havo va manmanlikdan yiroq xarakter ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, "tanishsizlik, yolg'izlik meni juda zeriktirgan edi" degan jumla orqali qahramonning ichki ruhiyati ochiladi. Otabek tashqi tomondan vazmin va og'ir tabiatli bo'lsa-da, qalban insoniy mehr va yaqinlikka ehtiyoj sezadigan nozik ruh egasidir. U moddiy boylik yoki dabdaba ichida emas, samimiy insoniy munosabatlar orasida o'zini baxtli his qiladi. Shu jihatdan uning xarakterida ma'naviy ehtiyoj moddiy ehtiyojdan ustun turadi.

Muallif aynan shu kichik dialog orqali Otabekning butun xarakter mohiyatini sezdiradi. Chunki chinakam yetuk insonning ulug'ligi uning mansabi yoki boyligida emas, balki odamlarga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Otabekning samimiyligi, ruhiy nozikligi va insoniy iliqqligi uni asardagi boshqa obrazlardan ajratib turadi. Shu sababli bu epizod Otabek xarakterini ochishda muhim psixologik vosita vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy obraz adabiyotning markaziy estetik kategoriyalaridan biri bo'lib, u orqali yozuvchi inson ruhiyati, jamiyat muammolari va hayot haqiqatini badiiy talqin qiladi. Personaj,

qahramon va xarakter tushunchalari esa obrazning mazmun-mohiyatini ochishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Personaj asardagi ishtirokchi shaxsni anglatadi, qahramon voqealar markazida turuvchi yetakchi obraz sifatida namoyon bo'ladi. Xarakter esa obrazning ichki mohiyatini, ruhiy va ma'naviy qiyofasini belgilaydi.

Erkin Samandar va Abdulla Qodiriy asarlari tahlili shuni ko'rsatadiki, yozuvchilar badiiy obraz yaratishda inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini ochishga intilganlar. Enaxon aya obrazi orqali vijdon va ma'naviy poklik, Shayx Najmiddin Kubro timsolida vatanparvarlik va fidoyilik, Otabek xarakterida esa samimiyat, ruhiy noziklik hamda insoniy fazilatlar yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Shu jihatdan badiiy obraz, personaj, qahramon va xarakter masalalarini o'rganish nafaqat adabiyot nazariyasining, balki inson ruhiyatini anglashning ham muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. — Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004.
2. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. — Toshkent: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.
3. Dilmurod Qur'onov. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
4. Erkin Samandar. G'ayb qushlari: roman, qissa va hikoyalar. — Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2009.
5. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar: roman. — Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004.